

MA'LUMOTNOMA № 258 (18 07 2025-yil)

Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik va pedagogika fakulteti  
1-bosqich 24-guruh talabasi Shamsiyeva Maftuna  
Alisher qizi ning 2024/2025-o'quv yilida ma'naviy-ma'rifiy sohaga  
oid boshqa yo'nalishlardagi faolligi to'g'risida.

Berildi ushbu ma'lumotnoma shu haqdaki, 2024/2025-o'quv yilida talaba  
Shamsiyeva Maftuna Alisher qizi ning  
ma'naviy-ma'rifiy sohaga oid boshqa yo'nalishlardagi faolligi o'rganildi va  
3 ball bilan baholandi.

**Buxoro davlat universiteti**  
**San'atshunoslik va pedagogika fakulteti**  
**12-1MAD24 guruh**  
**Shamsiyeva Maftunaning**  
**Bayonnomasi.**

San'atshunoslik va pedagogika fakulteti 1-bosqich talabalari uchun "Ta'lim granti: yangi tartib va imkoniyatlar" mavzusida seminar-trening tashkil etildi. Seminarda Registrator ofisi mutaxassisi S. Muxlisov, fakultet dekani S.S. Azimov, Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha bo'lim mutaxassisi H. Karimov hamda fakultet tyutori L.A. Kamilova ishtirok etdi. Tadbir davomida Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-martdagi 149-son qarori asosida "Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to'g'risidagi nizom" mazmun-mohiyati talabalarga tushuntirildi. Shuningdek, ta'lim grantlarini qayta taqsimlash sxemasi hamda ijtimoiy faollikni aniqlash bo'yicha baholash mezonlari haqida batafsil ma'lumot berildi.



**Buxoro davlat universiteti**

**San'atshunoslik va pedagogika fakulteti**

**12-1MAD24 guruh talabasi**

**Shamsiyeva Maftunaning Bayonnomasi**

**2024-yil 12-dekabr kuni "Madaniy tadbirlarni tashkil etish" fanidan ochiq dars bo'lib o'tdi. Darsda guruhimiz talabalari faol ishtirok etishdi. Ochiq darsni o'qituvchi O'rinov Shamshod olib bordi va u madaniy tadbirlarning jamiyat hayotidagi o'rni, ularni to'g'ri tashkil etish metodikasi, sahnalashtirish bosqichlari, ishtirokchilarni tanlash hamda madaniy merosga asoslangan mavzularni tanlash borasida keng tushunchalar berdi.**

**Dars davomida talabalar kichik guruhlariga bo'linib, o'zlari mustaqil tarzda kichik sahna ko'rinishlari tayyorlashdi. Har bir guruh o'z ijodiy yondashuvi orqali madaniy tadbirlarning amaliy jihatlarini namoyish etdi.**



**Buxoro davlat universiteti**  
**San'atshunoslik va pedagogika fakulteti**  
**12-1MAD24 guruh talabasi**  
**Shamsiyeva Maftunaning**  
**Bayonnomasi.**

Sana: 2025-yil 21-aprel

San'atshunoslik va pedagogika fakultetida 2025-yil 21-aprel kuni akademik guruh talabalari ota-onalari bilan uchrashuv o'tkazildi. Uchrashuvda fakultet dekani S.S. Azimov, ofis registratorining bosh mutaxassisi S. Muxlisov hamda fakultet tyutori L.A. Kamilova ishtirok etdi. Suhbat davomida talabalarning o'quv jarayonidagi faolligi, jumladan, GPA ko'rsatkichlari, darslarda qatnashish holati va ijtimoiy faolligi haqida ota-onalarga atroflicha ma'lumot berildi. Talabalarning kiyinish madaniyati, ichki tartib-intizomga rioya qilishi ham alohida muhokama qilindi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-martdagi 149-sonli qarori, uning talabalarga ta'lim granti ajratish va qayta taqsimlashdagi roli hamda baholash mezonlari haqida to'liq tushuntirishlar berildi. Universitetda amal qilayotgan "Odob-axloq kodeksi" ota-onalarga yana bir bor tanishtirilib, uning asosiy talablari

tushuntirildi.

